

Yoshlar festivalida viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi



Yoshlar festivalida viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi
Bugun Surxondaryoda "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida boshlangan festival doirasida sektorlar rahbarlari – viloyat prokurori Sadriddin Turdiev Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida, ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i Abduvohid Ismoilov "Yoshlar markazi"da, davlat soliq boshqarmasi boshlig'i Sirojiddin Eshmatov "Matbuot uyi"da yigit-qizlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Shuningdek, "Yoshlar va tadbirkorlar" uchrashuvi, yosh tadbirkorlar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmasi, "Quvnoqlar va zukkolar" baxshichilik, "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovlari, milliy sport o'yinlari, otda yurish, otni yugurtirish, ot egarlash musobaqasi singari tadbirlar ham yuksak saviyada o'tkazilmoqda. Eslatib o'tamiz, "Yoshlar oyligi" doirasida mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlangan festivalda viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi.
Festivalъ joriy yilning 17 iyunъ kuni yakunlanadi.